ANDIJON VILOYATI XO‘JAOBOD TUMANI HOKIMINING
QARORI

2025-yil 5-avgust | 110-1-27-Q/25 | Xo‘jaobod tumani hokimligi

2026-yilgi chaqiruv mavsumiga tayyorgarlik koʻrish va uni oʻtkazish, chaqiriluvchilarni tanlab olish tadbirlarini tashkil etish toʻgʻrisida

“Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi PQ-4630-sonli qaroriga asosan, 2026 yilgi chaqiruv mavsumiga tayyorgarlik koʻrish va uni oʻtkazish bilan bogʻliq ishlarning samaradorligini oshirish hamda muddatli harbiy va safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chaqirilayotgan fuqarolarni har tomonlama oʻrganish hamda chaqiriluvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklari boʻyicha tayyorlash, muddatli harbiy xizmatni oʻtash tizimini yanada takomillashtirish, chaqiriluvchilarni tanlab olishda shaffoflik, oshkoralik va jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish hamda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-iyuldagi 413-sonli qarori ijrosini taʼminlash maqsadida, Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6-, 21^1-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Andijon viloyati hokiming 2025 yil 31 iyul kungi 293-1-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-iyuldagi 413-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin. chaqiriluvchilarni tanlab olish tadbirlarining sxemasi 1-ilovaga; chaqiriluvchilarning harbiy xizmatni oʻtashga tayyorligini baholash boʻyicha tanlov kengashi tarkibi 2-ilovaga; chaqiriluvchini oʻrganish varagʻi 3-ilovaga, 2025-2026 yilda chaqiruv mavsumida safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatiga chaqirilishi lozim boʻlgan chaqiriluvchilarni saralab olish rejasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tumandagi korxona va tashkilotlar rahbarlari hamda mahallalar uyushmasi tuman boʻlimi vakillari tomonidan chaqiriluvchilarning umumjismoniy tayyorgarlik darajasini baholash, ular bilan yakka tartibda suhbat oʻtkazish boʻyicha tanlov kengashi faoliyatini toʻlaqonli tashkil etilishida amaliy yordam koʻrsatilsin.

4. Tuman hokimining oʻrinbosari R.Egamberdiyev rahbarligida, tuman mahallalar uyushmasi boʻlimi (A.Madraximov), tuman maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi (N.Mirzakarimova) hamda tuman Yoshlar ishlari boʻlimi (M.Abdumutolibov) bilan birgalikda, chaqiriluvchilarning tanlab olishda norozi boʻlgan chaqiriluvchilarning murojaatlarini koʻrib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tashkil etilsin.

5. Tuman hokimligi matbuot xizmati (S.Saidaliyev), tuman “Haqiqat” gazetasi tahririyati (T.Shermatov)larga joriy yilning avgust oyidan boshlab har oyda tumanda oʻtkaziladigan tanlov

tadbirlarini ommaviy axborot vositalari, gazeta, internet saytlari va boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Tuman hokimining oʻrinbosari R.Egamberdiyev, tuman mudofaa ishlari boʻlimi boshligʻi Sh.Samatov, tegishli mutasaddi tashkilot va muassasalar bilan birgalikda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-iyuldagi 413-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Chaqiriluvchilarni tanlab olish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom talablari asosida ish tashkil etsin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining oʻrinbosari R.Egamberdiyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **J.Bozorboyev**

Xo‘jaobod tumani hokimining
2025-yil 5-avgustdagi
110-1-27-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Chaqiriluvchilarni tanlab olish tadbirlarining
SXEMASI

№	Bosqichlar	Mas’ullar	Tadbirlar	Muddatlar
1.	1-bosqich	Tuman mudofaa ishlari bo‘limi	Chaqiruv resurslari va chaqiriluvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘rganish. Tanlov tadbirlariga jalb etiladigan harbiy xizmatga yaroqli bo‘lgan chaqiriluvchilar ro‘yxatini tuzish.	Har yili 1 iyuldan 30 iyulgacha Har yil 10 avgustgacha
2	2-bosqich	Tuman hokimligi Tuman mudofaa ishlari bo‘limi	Tanlov tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida tuman hokimining qarorlari loyihalarini tayyorlash. Tanlov tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilish.	Har yil 1 avgustgacha Har yil 5 avgustgacha
3	3-bosqich	Mudofaa ishlari bo‘limi Tuman Mahallalar uyushmasi bo‘limi va mahalla fuqarolar yig‘ini raislari	Chaqiriluvchilarni mahallada o‘rganish.	2025-yil 10-avgustdan — 2026-yil 10-fevralgacha alohida jadval asosida
4	4- bosqich	Tanlov kengashi	Chaqiriluvchilarning umumjismoniy tayyorgarlik darajasini baholash.	2025-yil 10-avgustdan — 2026-yil 10-fevralgacha alohida jadval asosida
5	5- bosqich	Tanlov kengashi	Tanlov natijalari bo‘yicha chaqiriluvchilarni: harbiy-texnika mutaxassisliklari bo‘yicha tayyorgarlikka jalb etishga tavsiya etish; muddatli harbiy xizmatga chaqirishga tavsiya etish. natijalarni tuman (shahar) mudofaa ishlari bo‘limiga taqdim etish.	2025-yil 10-avgustdan — 2026-yil 10-fevralgacha Har yil 15 fevralgacha
6	6- bosqich	Mudofaa ishlari bo‘limi Mudofaa ishlari bo‘limi huzuridagi tanlov kengashi	Tanlov kengashi tavsiyasiga asosan chaqiriluvchilarni: harbiy-texnika mutaxassisliklari bo‘yicha tayyorgarlikka jalb etish; muddatli	Har yil uch bosqichda Har yil 20-fevraldan 30-aprelgacha

			harbiy xizmatga chaqirish to‘g‘risida tegishli qaror qabul qilish.	

Xo‘jaobod tumani hokimining
2025-yil 5-avgustdagi
110-1-27-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Chaqiriluvchilarning harbiy xizmatni o‘tashga tayyorligini baholash bo‘yicha tanlov kengashi

TARKIBI

Kengash raisi			
A.Madraximov		**-**	O‘zbekiston mahallalari uyushmasining tuman bo‘limi boshlig‘i
Kengash a’zolari			
2	**Z.Abduqayumov**	**-**	Tuman mudofaa ishlari bo‘limi vakili
3	**M.Abdumutolibov**	**-**	Tuman yoshlar ishlari bo‘limi boshlig‘i
4	***Lavozimga ko‘ra***	**-**	Umumiy, o‘rta, o‘rta-maxsus va kasbiy ta’lim muassasalarining jismoniy tayyorgarlik fani o‘qituvchisi
5	**N.Tojiboyev**	**-**	Umumiy, o‘rta, o‘rta-maxsus va kasbiy ta’lim muassasalarining chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik rahbari
6		**-**	Chaqiriluvchilarning ota-onalari orasidan vakillar

Xo‘jaobod tumani hokimining
2025-yil 5-avgustdagi
110-1-27-Q/25-son qaroriga
3-ilova

Chaqiriluvchini oʻrganish varagʻi

Oʻrganish tartibi	Oʻrganish natijalari (imzo va sana koʻrsatiladi)
1. Tuman (shahar) mudofaa ishlari boʻlimi vakilining chaqiriluvchi bilan suhbati Chaqiriluvchining harbiy xizmatga qiziqishi va ishtiyoqi, jismoniy tayyorgarligi, axloqiy-ruhiy holati, bilim darajasi, fikrlash qobiliyati, dunyoqarashi, oilaviy sharoiti hamda boshqa zarur maʼlumotlar oʻrganiladi.	
2. Profilaktika inspektorining chaqiriluvchi bilan suhbati Chaqiriluvchining huquqbuzarliklar sodir etgani, jinoiy va (yoki) maʼmuriy javobgarlikka tortilgani, tergovga jalb qilingani, sudlangani hamda boshqa zarur maʼlumotlar oʻrganiladi.	
3. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasasi shifokorining chaqiriluvchi bilan suhbati Chaqiriluvchining sogʻligi, oʻtkazgan yoki mavjud surunkali kasalliklari, jarohatlari va ularning asoratlari, shuningdek, ruhiy va narkologik dispanser nazoratida boʻlgani toʻgʻrisidagi hamda boshqa zarur maʼlumotlar oʻrganiladi. 4. Yoshlar yet	
4. Yoshlar yetakchisining chaqiriluvchi bilan suhbati Chaqiriluvchining Oʻzbekiston tarixi, ulugʻ ajdodlarimiz, sarkardalarimizning hayoti va faoliyatiga doir bilimlari, sportga qiziqishi hamda boshqa zarur maʼlumotlar oʻrganiladi.	
5. Mahalla fuqarolar yigʻini raisining chaqiriluvchi bilan suhbati Chaqiriluvchining oilaviy sharoiti, oilasidagi muhit, jamoat ishlaridagi ishtiroki, mahalladagi yurish-turishi, oila-	

aʼzolari va mahalla aholisi bilan munosabati hamda boshqa zarur maʼlumotlar oʻrganiladi.	

II. _____ tuman (shahar) mudofaa ishlari boʻlimi vakilining chaqiriluvchining ota-onasi bilan suhbati:

_____
_____
_____
_____
_____

III. Umumjismoniy tayyorgarlik darajasi boʻyicha qoʻyilgan baho:

Umumjismoniy tayyorgarlik darajasi boʻyicha qoʻyilgan baho						
Turnikda tortilish		100 metrga yugurish		3 000 metrga yugurish		Umumiy baho
marotaba	baho	soniya	baho	daqiqa	baho	

IV. Tanlov kengashining yakuniy qarori: Harbiy-texnika mutaxassisliklari boʻyicha tayyorgarlikka jalb etish (yoki muddatli harbiy xizmatga chaqirish) uchun tavsiya etiladi (yoki tavsiya etilmaydi)

_____
_____
_____

Tanlov kengashi raisi	_____		_____
	(imzo)		(F.I.O.)
Tanlov kengashi aʼzolari	_____		_____
	(imzo)		(F.I.O.)
	_____		_____
	(imzo)		(F.I.O.)
	_____		_____
	(imzo)		(F.I.O.)
	_____		_____
	(imzo)		(F.I.O.)
	_____		_____

	(imzo)		(F.I.O.)

Xo‘jaobod tumani hokimining
2025-yil 5-avgustdagi
110-1-27-Q/25-son qaroriga
4-ilova

2025-2026-yillarda chaqiruv mavsumida safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatiga chaqirilishi lozim bo‘lgan chaqiriluvchilarni saralab olish rejasi

№	Mahalla fuqarolar yig‘inlari nomlari	Umumiy chaqiriluvchilar soni	SCHR xizmatiga reja taqsimoti	Muddatli harbiy xizmat rejasi
1	Yangi Farg‘ona	**122**	**10**	7
2	To‘raobod	**109**	**8**	7
3	Ipak yo‘li	**140**	**12**	7
4	Manak	**134**	**17**	6
5	Nishobbo‘yi	**82**	**10**	7
6	Guliston	**106**	**13**	6
7	Quvvatmurod	**95**	**15**	7
8	Orday	**123**	**17**	7
9	Dilkushod	**175**	**21**	7
10	Solpi	**95**	**9**	7
11	Beshqovoq	**125**	**12**	7
12	Ipakchi	**104**	**9**	7
13	Fayzobod	**165**	**15**	6
14	Uch ko‘cha	**76**	**7**	7
15	Qorabuloq	**107**	**12**	7
16	Ko‘prikboshi	**105**	**12**	7
17	Beshkaram	**110**	**11**	5
18	Jo’me	**104**	**10**	4
19	Baxrin	**101**	**10**	4
20	Bobur	**83**	**8**	4
21	Shaxrixonsoy	**111**	**13**	4
22	Uzun ko‘cha	**56**	**7**	4
23	Navoiy	**111**	**11**	4
24	Sanoatchilar	**87**	**9**	4
25	Navbahor	**101**	**10**	6
26	Chimbuloq	**121**	**12**	6

27	Yuksalish	**95**	**9**	6
28	Yangi Hayot	**92**	**9**	7
29	Xidirsha	**103**	**10**	6
30	Andijon	**105**	**10**	4
31	Mustahkam	**115**	**17**	7
32	Sarqamish	**107**	**13**	7
33	Garagura	**95**	**12**	7
34	Yetmishmergan	**79**	**8**	7
35	Qurama	**108**	**18**	7
36	Mustaqillikning 27-yilligi	**10**	**2**	3
37	Mustaqillikning 30-yilligi	**10**	**2**	3
38	Tosh ota	**105**	**8**	6
39	Karnaychi	**115**	**8**	6
jami:		**3987**	**500**	**230**